



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 30-yanvar, № 20 (9191)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA TURKIYA: IKKI QARDOSH XALQ O'RTASIDAGI RISHTALAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan'anning taklifiga binoan 29-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Anqara shahridagi "Esenbog'a" xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan' an va rafiqasi kutib oldi.

Ikki davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tordii.

Davlat rahbarlari va birinchi xonimlar qisqa uchrashuv o'tkazdilar. Suhbatda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shundan so'ng Turkiya Respublikasi Prezidentining Anqara shahridagi Oqsaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbarini Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan kutib oldi.

Maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordii. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdogan shohsupaga ko'tarildilar. Harbiy orkestr ijrosida ikki mamlakat davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Anqara shahridagi Prezident saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan'anning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari butun musulmon ummati uchun muqaddas Ramazon oyi kirib kelayotgani bilan bir-birlarini samimiy tabrikladilar.

O'zbekiston – Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini, xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarida yanada kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Barcha darajalardagi yuqori sur'at va faol muloqotlar mamnuniyat bilan qayd etildi. Tomonlar yaqinda bo'lib o'tgan strategik rejalashtirish guruhining "4+4" formatidagi uchrashuvining samarali natijalarini olqishladilar.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma korxonalar, mamlakatlar o'rtasidagi aviaqatnovlarning soni izchil o'sib bormoqda. Muntazam ravishda qo'shma madaniy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy himoya va boshqa ustuvor yo'nalishlarda loyiha va dasturlarni ilgari surish zarurligi ta'kidlandi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasida, kiberjinoatchilikka qarshi kurashish borasida hamkorlik va o'zaro

muvofiglashtiruvni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan raisligida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Siyosiy muloqot jadal rivojlanayotgani, xalqaro masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyasi o'xshash ekani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga kelishib olindi.

Parlamentlararo aloqalar, jumladan, do'stlik guruhlar doirasida faollashdi.

O'zaro savdo hajmi, shuningdek, Turkiyaning yetakchi kompaniyalari

bilan qo'shma korxona va loyihalarning soni izchil ravishda o'sib bormoqda.

Kelgusi yillarda tovar ayirboshlash hajmini, jumladan, imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimdagi tovarlar ro'yxatini kengaytirish orqali 5 milliard dollarga yetkazish vazifasi belgilab olindi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida alohida dastur asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan sanoat kooperatsiyasining yangi ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, hududlararo hamkorlikning ulkan salohiyati qayd etildi. Yil oxiriga qadar O'zbekistonning barcha viloyatlaridan delegatsiyalar hamkor hududlar bilan loyihalar portfelini ishlab chiqish maqsadida Turkiyaga tashrif buyuradi.

Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, sog'liqni saqlash va tibbiy turizm sohalarida Turkiyaning ilg'or tajribasini joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Turizm yo'nalishida aloqalarni rivojlantirish, teatr festivallari va madaniyat haftaliklarini o'tkazish, tarixiy filmlarni birgalikda ishlab chiqarish, madaniy meros obyektlarini hamkorlikda tiklashga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida shu

yil bahorda Buxoroda to'rtinchi Rektorlar forumini o'tkazishga kelishib olindi.

Shuningdek, Qo'shma hukumatlararo komissiya hamraislarning ko'p qirrali hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Yig'ilish yakunida ikki davlat hukumatlariga qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash topshirildi.

Shavkat Mirziyoyev Rejep Tayyip Erdogan'anga O'zbekistonga tashrif bilan kelishni taklif qildi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan' an Qo'shma bayonot hamda Keng qamrovli strategik sheriklik doirasidagi hamkorlik mexanizmlari to'g'risidagi qarorni imzoladilar.

Bundan tashqari, ko'p qirrali sheriklikning turli yo'nalishlarini qamrab oluvchi ikki tomonlama hujjatlar to'plami imzolandi. Xususan:

– sog'liqni saqlash, ta'lim va harbiy tibbiyot sohalaridagi hamkorlik to'g'risida;

– iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik to'g'risida;

– konchilik sanoatida o'zaro hamkorlik to'g'risida;

– xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik to'g'risida;

– maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida;

– yadro xavfsizligi, jisman himoya qilish, kafolatlar va radiatsion himoya sohasidagi hamkorlik to'g'risida;

– migratsiyaga ko'maklashish va fuqarolarni o'z mamlakatiga qaytarish sohasidagi hamkorlik to'g'risida;

– O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi va Turkiya Din ishlari boshqarmasi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar;

– Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;

– O'zbekiston Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi va Turkiya Oliy ta'lim kengashi o'rtasida bayonnomalar;

– Madaniyat sohasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik rejasini.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan' an Anqara shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi yakunlari yuzasidan ommaviy axborot

vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida turkiyalik hamkasbiga ko'rsatilgan mehmondo'stlik va kengash doirasidagi samarali muzokaralar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Bugungi kunda Turkiya barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishayotgani va nafaqat musulmon dunyosida, balki global miqyosda ham haqli ravishda yuksak hurmat-e'tibor qozongani alohida ta'kidlandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston – Turkiya do'stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'tgan yili o'zaro savdo hajmi 3 milliard dollardan, qo'shma korxonalarining soni esa 2,2 mingga oshdi, o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi qariyb 10 milliard dollarni tashkil etdi.

Ikki mamlakat o'rtasida haftasiga 100 ga yaqin aviaqatnov amalga oshirilmoqda. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida 9 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllantirilgan.

Kengash yig'ilishlarini muntazam ravishda o'tkazish, Hukumatlararo komissiya va Strategik rejalashtirish guruhi mexanizmlaridan samarali foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyoti davom ettiriladi.

Yetakchilar savdo hajmini, shu jumladan, imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim doirasida tovarlar turini kengaytirish, ustuvor iqtisodiy tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash orqali 5 milliard dollarga yetkazishga kelishib oldilar.

Shuningdek, madaniy va gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirishga, xususan, birgalikda teatr va kino haftaliklari, badiiy ko'rgazmalarni o'tkazish hamda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Kengash yig'ilishi yakunlaridan kelib chiqib, ikki mamlakat hukumatlari tomonidan erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va sifati amalga oshirish bo'yicha keng qamrovli "Yo'l xaritasi" qabul qilinishi ta'kidlandi.

Anqara shahriga rasmiy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan' an Hatay viloyatida mamlakatimiz tomonidan barpo etilgan "O'zbekiston" turarjoy majmuasining ochilish marosimida ishtirok etdilar.

Tadbirda davlatimiz rahbari uch yil oldin sodir bo'lgan vayronkor zilzila qardosh turk xalqi uchun og'ir sinov bo'lganini ta'kidladi. O'zbekiston ushbu fojiali davrning dastlabki kunlaridanoq Turkiyaga har tomonlama yordam ko'rsata boshladi.

Qisqa fursatda 100 nafar o'zbekistonlik qutqaruvchi va 70 nafar tibbiyot xodimi falokat sodir bo'lgan hududga yetib bordi. Qidiruv-qutqaruv ishlari natijasida 18 kishi qutqarildi, 200 nafarga yaqin jabrlanganlar vayronalar ostidan chiqarildi. Dala shifoxonasi 4 ming nafar bemorga tibbiy yordam ko'rsatdi.

Prezident Rejep Tayyip Erdogan' an tashabbusi bilan zilzila oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha keng ko'lami dasturlar amalga oshirilayotgani alohida qayd etildi. Bugungi kunga qadar mamlakatda 455 mingdan ortiq uy-joylar qurildi.

O'zbekiston, o'z navbatida, qisqa muddatlarda Hatay viloyatining Arsuz tumanida 300 dan ziyod to'liq jihozlangan xonadon, jami 24 ta ko'p qavatli uydan iborat barcha zarur infratuzilmaga ega zamonaviy turarjoy majmuasini barpo etdi.

Turkiya Prezidenti ushbu majma nafaqat jabrlangan oilalar uchun yangi uy, balki o'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi abadiy do'stlikning yorqin namunasini ekanini ta'kidladi.

Yetakchilar loyihani amalga oshirishda ishtirok etgan quruvchilar, muhandislar, ishchilar va barcha hamkorlarga samimiy minnatdorlik bildirdilar.

Davlat rahbarlari yangi xonadonlarni kalitlarini ularning egalariga tantanali ravishda topshirdilar.

Shuningdek, Prezidentlar Istanbulning Bekirkoy tumanida o'zbek maktabi qurilishini boshlab berdilar. Mazkur dargoh O'zbekistonning xorijdagi birinchi ta'lim muassasasi bo'ladi.

Yangi o'quv maskani Turkiyada yashovchi o'zbek oilalarining farzandlariga o'z ona tilida ta'lim olishi bilan birga milliy qadriyatlar, madaniyat va an'analarni saqlab qolish imkonini beradi.

Tomonlar ushbu maktab ikki qardosh xalq o'rtasidagi rishtalar yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qilishi, yosh avlod uchun muhim ta'lim va tarbiya markaziga aylanishiga ishonch bildirdilar.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'rufat xizmati surati.

QONUN USTUVORLIGI – OSOYISHTALIK GAROVI

Prezidentimizning Toshkent shahar ichki ishlar tizimidagi tergov va surishtiruv faoliyatiga bergan tanqidiy baho har qanday kishini jiddiy tashvishga solishi tayin. Ayniqsa, xodimlar malakasi yetishmasligi oqibatida 833 ta holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilmagan, hisobdan yashirilgani – qonun ustuvorligiga va fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadi.

Aks sado

Ta'kidlanganidek, rasmiy hisobotlarda jinoyatchilik kamaygani qayd etilgan bo'lsa-da, poytaxtda o'nlab "qizil" va yuzlab "sariq" toifadagi mahallalar saqlanib qolayotgani tizimdagi real holat bilan hisobot o'rtasida jiddiy tafovut borligini ko'rsatadi. Ayrim tumanlarning oilaviy

zo'ravonlik, bosqinchilik, qotillik va talonchilik kabi og'ir jinoyatlar bo'yicha respublika miqyosida yetakchi o'rinlarda ekani taassufdanlaridir.

Davlatimiz rahbari mas'ul idoralar uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyat, kiberjinoyatchilik va "yashirin iqtisodiyot" bo'yicha jilovni qo'lga olib, xodimlarining dunyoqarashini o'zgartirsa, ularni yangicha ishlashga

o'rgatsa, shunda natija bo'lishini alohida ta'kidladi.

E'tiborlisi, ushbu to'rtta yo'nalish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, birinchi navbatda, Toshkent shahrida yo'lga qo'yiladi va poytaxtda xavfsiz muhitni shakllantirish bo'yicha "poytaxt namunasini" joriy etiladi. Albatta, bu kabi keskin tadbirlarni amalga oshirish juda ham muhim. Chunki Toshkent – mamlakatimiz yuzi. Unda bunday salbiy holatlarning mavjudligi va ularning oldini olish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralarini ko'rish – bugungi kun talabi.

Bunday vaziyatda huquq-tartibot idoralari bilan ta'lim dargohlarini integratsiya qilish katta ahamiyat kasb etadi. ➡

Deputatlar – hududlarda

OCHIQ VA SAMARALI MULOQOTLAR

islohotlar natijadorligini ta'minlash, aholi takliflarini o'rganish imkonini bermoqda

Aval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish, amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini o'rganish maqsadida hududlarda bo'lib, saylovchilar bilan muloqot qilmoqda. Uchrashuvlar davomida asosiy e'tibor davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbuslarning, shuningdek, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni loyihasining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilyapti. Qonunchilik palatasining o'tgan yildagi faoliyati, xususan, qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil tadbirlari, xalqaro aloqalar yo'nalishida olib borilgan ishlar to'g'risida ham saylovchilar xabardor etilib, ayni vaqtda qabul qilinayotgan qonun loyihalariga ularning taklif va fikrlari o'rganilmoqda.

Murojaatlar yechimi – hamkorlikda

Qonunchilik palatasi deputati Azamat Pardayevning Samarqand viloyatining Jomboy tumanida mahalla faollari, yoshlar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvlari amaliy natijalarga boy bo'lmoqda.

Xalq vakilining dastlabki manzili tumandagi "Islohotlar shtabi" bo'ldi. Bu yerda shtabning joriy faoliyati, mahallalarda aholi muammolarini o'rganish va hal etishdagi ishtiroki, ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan ishlarning samaradorligi atroflicha ko'rib chiqildi. ➡

Alariner Navoiy tavalludining 585-yilligiga

MA'NAVIY XAZINADAN BAHRAMANDLIK SAODATI

Bu yil mamlakatimizda, shuningdek, turkiy dunyoda buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligi keng nishonlanmoqda.

Zotan, bu ulug' siymoning benazir hayot yo'li va faoliyati – haqiqiy ibrat maktabi, bebaho adabiy merosi esa bashariyatni ma'naviy uyg'oqlikka chorlovchi, komillik, adolat, hurlik, vatanparvarlik, odob-axloq, insonparvarlik, hamjihatlik g'oyalarning badiiy ifodasi sifatida alohida qadrlab kelinadi.

Buyuk shoir dahosini cheksiz ummonga mengash mumkin. Uning qa'ri nihoyatda teran, duru javohirlarga limmo-lim. Mana shu tengsiz ma'naviy xazinadan bahramandlik xalqimiz uchun ulkan saodat.

"Abadiyat gulshani" sahifasi orqali gazetxonlarni buyuk bobomizning ana shunday yuksak badiiy zakosiga hamnafas etishga intildiki. Zero, taraqqiyotning yangi bosqichida dadil odimlayotgan mamlakatimizda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi ma'naviyatni rivojlantirish, milliy g'ururni yuksaltirish, insonlar qalbida el-yurt taqdiriga daxldorlik, fidoyilik, mardlik va jasorat, Vatanni sevishtirish, qadriyatlariga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

4-sahifaga qarang. ➡

Joriy yilda mamlakatimizda qurilish ishlari hajmini 11 foizga ko‘paytirib, 30 mlrd. dollarga yetkazish reja qilingan.

IQTISODIYOT

yangiliklari

Xalqaro miqyosdagi eʼtirof

Jahon toʻqimachilik va yengil sanoat sohasidagi eng yirik tadbirlardan biri – “Texworld New York City – 2026” xalqaro koʻrgazmasida mamlakatimizdan 20 ga yaqin yetakchi toʻqimachilik kompaniyalari ishtirok etdi.



AQSHning Nyu-York shahrida boʻlib oʻtgan ushbu tadbirda milliy ishlab chiqaruvchilarning “Made in Uzbekistan” milliy brendi ostida tabiiy matolar, tayyor kiyim-kechaklar, zamonaviy aksessuar va innovatsion yechimlar asosida tayyorlangan toʻqimachilik mahsulotlarini namoyish qildi. Eng muhimi, mahsulotlarning sifati, ekologik tozaligi va jahon standartlariga mosligi xalqaro xaridorlar va ekspertlar tomonidan yuqori baholandi.

Yurtimiz tadbirkorlari bu kabi nufuzli koʻrgazmalarda ishtirok etish orqali yangi eksport bozorlariga chiqish, jahon brendi va kompaniyalar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yoʻlga qoʻyish hamda innovatsiya va global trendlar bilan tanishish imkoniga ega boʻlmoqda.

Zaminimiz noz-neʼmatlari global bozorda

BAAning Dubay shahrida oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari sohasida dunyodagi eng yirik yarmarkalardan biri – “Gulfod – 2026” xalqaro koʻrgazmasi oʻtkazildi.



Tadbirda Oʻzbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ koʻmagida 510 kv. metr maydonda tashkil etilgan “Made in Uzbekistan” yagona milliy stendi orqali mamlakatimizning oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi sohasidagi salohiyati keng namoyish qilindi. Milliy ekspozitsiya doirasida 60 dan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar oʻz mahsulotlarini xalqaro xaridorlar va hamkorlarga taqdim etdi.

“Gulfod – 2026” doirasidagi ishtirok mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi xalqaro hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyish, eksport jugʻrofiyasini kengaytirish hamda “Made in Uzbekistan” brendini jahon bozorida yanada mustahkamlash yoʻlida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkor ayollar daromadi oshmoqda

2025-yilda mamlakatimiz tadbirkor ayollari boshqarayotgan 43 860 ta mikro va kichik korxonaning daromadi 47,7 trln. soʻmni tashkil etdi. Bu oldingi yildagiga nisbatan 10,1 trln. soʻm koʻp daromad olinganidan dalolat bermoqda.

Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Tadbirkor ayollar kengashi yigʻilishida shu haqda soʻz berildi.

Taʼkidlanganidek, ushbu oʻsish mamlakatimizda tadbirkor ayollarni koʻllab-quvvatlashga qaratilgan tizimiy islohotlar, taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar va maslahat xizmatlarining samarasidir.

Anjumanda kelgusi yillarda tadbirkor ayollarning biznes faoliyatini yanada kengaytirish, ularning mahsulot va xizmatlarini ichki va tashqi bozorga olib chiqishga koʻmaklashish ustuvor vazifa ekanligi aytildi.

“Xalq soʻzi”.

BILIMLI VA SOGʻLOM JAMIYAT TARAQQIYOTNI KAFOLATLAYDI

Mamlakatimizda sogʻliqni saqlash tizimini tubdan isloh etish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgani aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, inson salomatligini mustahkamlash hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini taʼminlashda hal qiluvchi omil boʻlayotir. Sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifatinii oshirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalar va innovatsion usullarni amaliyotga joriy etishga alohida eʼtibor qaratilayotgani esa fuqarolarning hayot sifati hamda oʻrtacha umr davomiyligini oshirmoqda.

Tibbiyot

Raqamlarga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, birgina oʻtgan yilning yanvar – noyabr oylarida jami 80 653 nafar chet el fuqarosi davolanish maqsadida Oʻzbekistonga kelgan. Bu raqamlar esa milliy tibbiyotimizning xalqaro darajada yuqorilab borayotganidan yaqqol dalolat beradi.



Kasalliklarni davolash bilan cheklanib boʻlmaydi

Taʼkidlash joizki, tizimni rivojlantirish faqat kasalliklarni davolash bilan cheklanib qolmasdan, aholi salomatligini saqlash, profilaktika, erta tashxis va sifati tibbiy xizmat koʻrsatish tizimini shakllantirishni ham talab qiladi. Bugungi kunga qadar davlatimiz rahbari tomonidan sohani rivojlantirish uchun bir nechta ustuvor yoʻnalishlar belgilab berildi va shulardan biri tibbiy kadrlar salohiyatini koʻtarish bilan bevosita bogʻliq.

Darhaqiqat, zamonaviy tibbiyot yuqori malakali, amaliy koʻnikmalarga ega, xalqaro tajribani oʻzlashtirgan kadrlarni talab etadi. Shu bois kasbiy tibbiy taʼlimni rivojlantirish sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilishning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Shu maʼnoda, oʻtgan davr mobaynida ushbu yoʻnalishda ham salmoqli ishlar bajarildi.

Jumladan, davlatimiz rahbari tashabbusiga koʻra Angliyaning

“Pirson” kompaniyasi bilan hamkorlikda har bir hududda bittadan texnikumda xalqaro standartlar asosida hamshiralar tayyorlash yoʻliga qoʻyilmoqda. Bu taʼlim muassasalarida oʻquv jarayoni amaliyotga yoʻnaltirilgan boʻlib, talabalar zamonaviy klinik protokollar, bemor bilan muloqot, tibbiy etika va xavfsizlik qoidalarini chuqur oʻzlashtiradi.

Endilikda Germaniya, Shveysariya, AQSH, Yaponiya kabi davlatlarning ilgʻor taʼlim dasturlari mazkur texnikumlarda joriy etiladi. Bu esa oʻquv mazmunini boyitish, tibbiy xizmat sifatinii oshirish, hamshiralarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh boʻlishini taʼminlaydi, albatta.

Qolaversa, xalqaro standartlar asosida tayyorlanayotgan hamshiralar ingliz va boshqa xorijiy tillarni bilish orqali ilmiy yangiliklarni oʻzlashtirish, xorijiy mutaxassislar bilan tajriba almashish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa milliy tibbiyot tizimining global

tibbiyot hamjamiyatiga integratsiyasini taʼminlaydi.

Raqamlashtirish va transformatsiya uygʻunligi

Dunyoning rivojlangan davlatlarida tibbiy taʼlim amaliyotga yoʻnaltirilgan, doimiy qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga asoslangan. Oʻzbekistonda ham ayni tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali samarali model shakllantirilmoqda. Bu jarayonda milliy anʼanalar hamda aholining tibbiy ehtiyojlari va hududiy xususiyatlar inobatga olinadi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi transformatsiya, avvala, raqamli tibbiyotni rivojlantirish bilan bogʻliq.

“Tibbiyot muassasalarini yagona yondashuv asosida tashkil etish uchun “master-reja” ishlab chiqilayotir. Ushbu reja tibbiy infratuzilmani optimallashtirish, ixtisoslashtirilgan markazlarni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish kabi ustuvor masalalarni qamrab oladi. Ayniqsa, profilaktik tibbiyotga eʼtibor qaratish orqali aholi oʻrtasida kasalliklar sonini kamaytirish va davolash xarajatlarini qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi.”

Elektron tibbiy kartalar, telemeditsina, sunʼiy intellekt asosida tashxis qoʻyish tizimlari xizmat sifatinii yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, raqamlashtirish tizimda shaffoflik, samaradorlik va sifatinii oshirishning eng muhim vositasidir. Bugungi kunda barcha tibbiyot muassasalarida elektron tibbiy maʼlumotlar tizimi joriy etildi. Elektron tibbiy kartalar bemor tarixi, tashxis hamda davolash jarayonini yagona platformada

yuritish, shuningdek, telemeditsina orqali chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholiga yuqori malakali shifokorlar xizmatidan foydalanish imkonii yaratilmoqda.

Tibbiyot muassasalarini yagona yondashuv asosida tashkil etish uchun “master-reja” ishlab chiqilayotir. Ushbu reja tibbiy infratuzilmani optimallashtirish, ixtisoslashtirilgan markazlarni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish kabi ustuvor masalalarni qamrab oladi. Ayniqsa, profilaktik tibbiyotga eʼtibor qaratish orqali aholi oʻrtasida kasalliklar sonini kamaytirish va davolash xarajatlarini qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilda infarkt, insult, onkologik,

nevrologik kasalliklar kabi yuqumli boʻlmagan xastaliklarga qarshi kurash tizimining eng muhim yoʻnalishlari etib belgilandi. Bu maqsadlar uchun 3,5 trln. soʻm mablagʻ ajratilishi sohaga boʻlgan eʼtiborning yorqin namunasidir.

Transplantatsiya xizmatlarini kengaytirish, emlov qamrovini oshirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Bu saʼy-harakatlar aholi salomatligini uzoq muddatli taʼminlashga xizmat qiladi.

ANIQLIK VA SHAFFOFLIK

AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN MEKANIZMLARNI JORIY ETISHGA XIZMAT QILADI

Ayni chogʻda respublikamizda 15-yanvarda boshlangan va 17 kun davom etadigan aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish tadbirining birinchi bosqichi ayni avjida. Axborot texnologiyalari rivojlanib, aholining huquqiy savodxonligi oshib borayotgani mana shu jarayonda yaqqol sezilyapti – yurtidoshlarimiz roʻyxatga olish tadbirida faol qatnashmoqda. Binobarin, davlatimiz rahbari yaqinda kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlash masalalariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida taʼkidlaganidek, “Roʻyxatga olish har bir mahalla va har bir oilaning real holatini aniqlash, kelgusi rejalarini shu asosda belgilash, eng muhimi, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etishga xizmat qiladi”.

“Roʻyxatga olish – 2026”

Mazkur tadbirning huquqiy jihatlari va ijtimoiy ahamiyati haqida Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti professori, sotsiologiya fanlari doktori Xayriniso HUSANOVA muxbirimizga quyidagilarni soʻzlab berdi.

– Mamlakatimiz miqyosida aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir maʼlumotlarni yigʻish hamda ularga ishlav berish davlatning ustuvor yoʻnalishlarini aniq belgilashda juda muhimdir. Shu bois 2020-yil 16-martda “Aholini roʻyxatga olish toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. Besh yillik puxta tayyorgarlikdan soʻng bu tadbir oʻtkazilmoqda.

Maʼlumki, Oʻzbekiston aholisi soni istiqolot yillarida ikki karra koʻpayib, 38 million nafardan oshdi. Shunga yarasha infratuzilmalar, yangidan-yangi shaharlar, guzarlar paydo boʻldi. Bugun Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotini, iqtisodiy salohiyatini yanada koʻtarish zaruriyati tugʻilgani bois roʻyxatga olish tadbiriga jiddiy kirishildi. Maʼlumotlarning haqqoniyligi davlatning manzilli ijtimoiy siyosat olib borishida, aniq byudjet taqsimoti hamda kelgusi taraqqiyot strategiyalarini belgilashda asosiy strategik tirgak boʻlishi tayin. Rivojlangan davlatlar, xususan, AQSH tajribasi bunga yaqqol misol. Bu mamlakatda 1790-yildan buyon har oʻn yilda aholining ijtimoiy demografik holati boʻyicha statistik kuzatishlar muttasil oʻtkazib kelinadi. Soʻnggi yillarda AQSH ushbu jarayonni ilmiy va

texnologik jihatdan butkul yangicha bosqichga olib chiqdi. 2010-yilda katta miqdorda moliyalash evaziga planshet orqali aniq geolokatsiyalar, navigatsiya tizimlari qoʻllanildi. AQSHdagi 2020-yilda oʻtkazilgan onlayn roʻyxatga olish jarayoni esa xalqaro maydonda barchaga namuna boʻldi.

Xitoyda “bitta oila – bitta farzand” siyosati yuritilganligi uchun oilalar ikkinchi yoki uchinchi farzandni yashirishga uringan. Natijada aholini roʻyxatga olishda chakashliklar kuzatilgan. Yangi Zelandiyada esa bu tadbir yanada mukammal tarzda olib borildi va soʻrovnomaga ish soatleri hajmi, turarjoyning ijara narxi, sarflanadigan yonilgʻi miqdori kabi maishiy darajadagi savollar ham kiritilgan. Ozarbayjonda oʻtkazilgan roʻyxatga olish dasturi savollarida aholining matematik savodxonlik darajasini aniqlashga qaratilgan savollarni koʻrish mumkin edi. Qoʻshni Qirgʻizistonda esa bu tadbir jarayonida aholining faolligini oshirish maqsadida sovrinlar va yutuqli mukofotlar joriy qilingan.

Koʻrib turganingizdek, dunyo mamlakatlarida oʻtkazilgan roʻyxatga olish jarayoni nafaqat katta moliyaviy xarajatlarini, balki salmoqli inson kapitalini (mutaxassislar, roʻyxatga oluvchilar) ham talab qiladi. Sababi oddiy, butun mamlakat boʻylab (eng chekka hududlarga) axborot yigʻish punktlarini tashkil etish, kompyuterlar, planshetlar va boshqa jihozlar bilan taʼminlash, yuz minglab vaqtinchalik xodimlarni yollash, ularni oʻqitish va nazorat qilish – buning turgan-bitgani tashvish. Yigʻilgan ulkan maʼlumotlar hajmini xavfsiz saqlash, qayta ishlash va tahlildan oʻtkazish uchun zamonaviy dasturiy taʼminot va serverlar ham kerak.

Albatta, har bir davlat roʻyxatga olish tadbiriga oʻziga xos tarzda yondashmoqda, ish hajmi, sarf-xarajalar koʻlami ham turlicha. Ammo maqsad bitta – hayotni aniq va shaffof tarzda raqamlarda aks ettirish. Bu esa aholi kayfiyati, qiziqishi, harakatchanligini aniqlash ham demakdir. Quvonarlisi, dastlabki qisqa fursatdagi natijalar Oʻzbekiston aholisi bu borada ijtimoiy faol ekanligini namoyon qilmoqda.

Bugun aholining real bandlik darajasi va daromad manbalari haqida aniq maʼlumotlar qanday jamlanadi? Roʻyxatga olish orqali-da. Kelajakda maʼlum bir hudud yoki aholi qatlami (masalan, yosh tadbirkorlar yoki hunarmandlar)

uchun soliq imtiyozlarini berishda “koʻr-koʻrona” emas, balki aniq ehtiyojga qarab yondashiladi. Bu iqtisodiy resurslarning nooʻrin sarflanishiga chek qoʻyadi, manzilli imtiyozlar samaradorligini oshiradi.

Roʻyxatga olish natijalari qaysi hududlarda kambagʻallik darajasi yuqorilgini va bunga nima



sabab boʻlayotganini (ishsizlik, maʼlumotsizlik yoki infratuzilma yoʻqligi) namoyon etadi. Ijtimoiy nafaqalar va elektron reestrilar roʻyxatga olish maʼlumotlari bilan integratsiya qilinishi natijasida yordamga haqiqatda muhtoj oilalar chetda qolib ketmaydi. Bu tom maʼnoda ijtimoiy adolat taʼminlanadi degandir.

Qishloq joylarida mehnatga layoqatli aholi soni va ularning ixtisoslashuvini aniqlash ham juda muhim. Agar maʼlum bir hududda aholi zich yashasa, oʻsha joyda innovatsiyaga, qishloq xoʻjaligini diversifikatsiya qilishga ustuvorlik beriladi. Qaysi ekinlarni ekish

Turmush darajasi va uy-joy sharoitlari, uy-joy fondi holati asosida tegishli islohotlarga start beriladi. Aholining uy-joy bilan taʼminlanganligi, kommunal qulayliklar (suv, gaz, elektr, internet) darajasi boʻyicha xulosalar aholi farovonligining real koʻrsatkichi hisoblanadi.

Yangi maktab, bogʻcha va shifoxonalar qurish joylari aniqlanadi, pensiya va ijtimoiy taʼminot tizimi isloh etiladi, investitsiyalarni hududlar kesimida toʻgʻri taqsimlash boʻyicha qarorlar qabul qilinadi. Bir soʻz bilan aytganda, mazkur tadbir hayotimizni yanada farovon va toʻkin boʻlishiga yoʻl ochadi.

Tibbiy savodxonlik – barqarorlik sharti

Sogʻliqni saqlash tizimi aholining hayot sifati hamda umr davomiyligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, samarali sogʻliqni saqlash tizimi sogʻlom jamiyatni shakllantirishning asosiy kafolati hisoblanadi. Aytish joiz, zamonaviy sogʻliqni saqlash tizimi bir qator vazifalarni bajarishga qaratilgan boʻlib, bular – kasalliklarning oldini olish va erta tashxis qoʻyish, sifati va oʻz vaqtida tibbiy xizmat koʻrsatish hamda ularni aholi uchun ochiq va qulay qilish, shuningdek, soha xodimlarining malakasini muttasil oshirishni oʻz ichiga oladi.

Bu esa, oʻz navbatida, taʼlim hamda sogʻliqni saqlash tizimlari hamkorligini izchil yoʻlga qoʻyishni talab etadi. Maʼrifatli jamiyat sogʻlom turmush tarziga ongli ravishda rioya qiladi, sogʻlom aholi esa samarali taʼlim olishga qodir boʻladi. Sogʻliqni saqlash sohasidagi bilimlarni taʼlim tizimiga integratsiyalash, yaʼni tibbiy savodxonlikni oshirish, yosh avlodga sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Taʼlim va sogʻliqni saqlashni rivojlantirish hamda transformatsiya qilish esa jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shu maʼnoda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, inson manfaatlarini ustuvor qoʻyish va sifati xizmatlarni taʼminlash orqali ushbu sohalarda barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Bilimli va sogʻlom jamiyat – kelajak taraqqiyotining eng ishonchli kafolati, shu bilan birga, sogʻliqni saqlash tizimini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan har bir tashabbus mamlakat barqarorligini taʼminlashga qoʻyilgan muhim qadamdir.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori,
professor.



Bundan besh asr muqaddam hazrat Alisher Navoiy:

«Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam», deb yozgan edi. Ya'ni, ul zot ona tili bayrog'ini baland ko'tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deb iftixor qilgan.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MA'NAVIIY XAZINADAN BAHRAMANDLIK SAODATI

IMKONDAN ORTIQ MUHABBAT

Hayotga, insonga muhabbat, umrni g'animat bilib qadrlash g'oyalari ufurib turgan quyidagi ruboiy Alisher Navoiyning donolik lirikasiga mansub bo'lib, yuksak san'atkorlik bilan yaratilgan asardir:

Sharh

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Ruboiyning bu qadar go'zal va ta'sirchan chiqishiga radif, qofiya, tarse, tadjir kabi badiiy san'atlar omil bo'lganki, ularning sharhi orqaligina ruboiyning mazmunini to'g'ri izohlash mumkin. Alisher Navoiy ruboiydek mo'jaz lirik asarda olti so'zli – "seni ko'p sevarmen, ey umri aziz" radifini qo'llagan. Jami yetti so'zdan iborat misraning olti so'zini radifga olish badiiyatda kamdan-kam uchraydigan hodisa. Intonatsion butunlik, musiqiy ohangdorlikni ta'minlovchi radifning teng yarim qismi "ey umri aziz" undalmasidan iborat bo'lishi esa tavsif obyekti – umrga, insonga nisbatan ehtirosli, umidvor murojaat hamda ilinj, e'tiqod motivlarini kuchaytirgan.

San'atkorlik shunda ham ko'rinadiki, shoir qo'qiyalanuvchi misralar boshidagi birgina so'zni o'zgartiradi, xolos. Qolgan so'zlar radifligicha saqlanadi. Ammo badiiy mazmun rivojlanaveradi. Buning ustiga, misralar avvalidagi o'zgaruvchi so'zlar ham jo'n emas, "jondin", "sondin", "ondin" singari o'zaro qo'qiyalanuvchi so'zlardan iborat bo'lib, buning o'zi bir san'at.

Misralardagi asosiy

so'zlarning mazmun silsilaviy suratda rivojlanishiga imkon beradigan tarzda joylashtirilishi tadjir san'atini vujudga keltirgan.

Natijada hayotga, insonga muhabbatning satrma-satr, darajama-daraja kuchayib boruvchi tasviri paydo bo'lgan. Ilt satrda shoir aziz umrni, sevikli yorni jondan-da ko'proq sevagagini izhor etgan. Lekin birgina jon fido etish bilan qanoatlanmagan, chunki "jon" tushunchasi hayotga, ma'shuqaga muhabbatini ifodalashga ojiz. Shundan so'ng miqdor tushunchasiga murojaat qilinadi. Shoir dunyoda miqdorni ifodalovchi qanchaki son bo'lsa, hayotga, yorga bo'lgan muhabbati o'shandan ham ortiqligini aytadi. Lekin bunday miqdor ham hayotga, bir umr aziz hisoblangan insonga muhabbat salmogi'ni ifodalay olmaydi.

Nihoyat, shoir umrga bo'lgan muhabbat cheksiz va o'lchovsiz ekanini anglaydi va ajoyib tarzda bayon etadi: "Ey umri aziz, eng oliy darajada sevish mumkin bo'lgan biror narsa bo'lsaki, boshqa bir narsani undan ortiq darajada sevish mumkin bo'lmasa, men seni o'shandan ham ortiq, ya'ni imkondan ortiq darajada sevaman".

Nusratullo JUMAXO'JA,
filologiya fanlari doktori,
professor.

TASHBEHLARDA AKS ETGAN HAQIQAT

Alisher Navoiy she'riyati o'z teranligi bilan asrlar osha bizni o'ziga maftun qilib keladi. G'azal va ruboiylardagi timsollar shoir g'oyasining mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Oshiq, ma'shuqa, raqib, gul va bulbul kabi obrazlar hazrat Navoiy lirikasi ta'sirchanligini yanada oshiradi. Gul va tikan timsollari ham yonma-yon kelib, ko'plab falsafiy mushohadalarni yoritishga xizmat qiladi:

Mushohada

Yuz gul arosida bir tikan bo'lsa, ne tong?!
Yuz yaxshi ichinda bir yoman bo'lsa, ne tong?!
Ming sog'ar ichilsa, o'yakim obi hayot,
Birning tahida durdudan bo'lsa, ne tong?!
To'rtlikdagi "gul" so'zi go'zallik, yaxshilik ma'nolarida kelgan bo'lsa, tikan kamchilik, qiyinchilik mazmunlarini ifodalaydi. Hayotimiz har

doim birdek go'zal va mukammal bo'lavermaydi. Ya'ni ba'zan uchrab turadigan salbiy holatlarni to'g'ri qabul qilishimiz darkor. Biz hurmat ko'rsatgan, sevgan insonning afzal jihatlarni qanchalik qadrlasak, kamchiliklarini ham boricha qabul etishimiz lozim.

Umrimiz davomida bizga doim ham yaxshi odamlar uchrayvermaydi. Yomon odamlar esa dars, saboq vazifasini o'taydi. Har doim ham qadahimizda tiniq ichimlik bo'lavermaydi. Albatta, birining tubida mayning quyqasi bo'lsa, ne ajab? Jomimizda tiniq may bo'lishi uchun uning cho'kindisi bo'lishini ham hisobga olishimiz zarur. Zero, dunyoda mukammal narsaning o'zi yo'q, har qanday go'zallikda arzimagan bo'lsa ham nuqson bo'lishi mumkin. Ulug' shoir Alisher Navoiy ta'kidlaganidek:

Gul bo'lsa, tikan dog'i bo'lor bo'stonda,
Dur bo'lsa, sadaf dog'i bo'lor ummonda.

Iroda ESHONXONOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

“NAVOIY YOMON BO'LSA, SEN YAXSHI BO'L”

Buyuk mutafakkir inisiga shunday nasihat qilgandi...

Alisher Navoiyning tug'ishgan ukasi Darvesh Alibek nomiga manbalarda "kitobdor", "ko'kaldosh" nisbalari qo'shib aytilgan. Temuriylar sulolasiga yaqinlikni bildiruvchi "ko'kaldosh"lik martabasi shoirning ona avlodiga mansubdir. G'iyosiddin Kichkinaning uchinchi o'g'li Darvesh Alining tug'ilgan va vafot etgan yillari to'g'risida tarixiy ma'lumotlar yo'q. Hayoti haqidagi bitiklar ham oz. Navoiy hazratlari "Munshaot"ga kiritilgan va ukasining Balxga hokim bo'lgan paytlari haqida "Darvesh Alibek xizmati bilan bizning xizmatimiz orasida tafovut yo'qtur", deya ta'kidlaydi. Shuningdek, 1485-yilda yozilgan "Saddi Iskandariy" dostonida Darvesh Alibekka nasihat qilib quyidagi misralarni bitadi:

Moziy sirlari

Ayo, gavharim konining gavhari,
Munir axtarim burjining axtari,
Necha avji hashmatga uza fosh sen,
Menga nisbat ichra qarindoshsen...

Navosiz ulusning navobaxshi bo',
Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'.

Bundan tashqari, boshqa manbalarda ham, ozgina bo'lsa-da, Darvesh Alibek to'g'risida ma'lumotlar bo'lib, xususan, "Boburnoma"da muallif "Darvesh Alibek tug'gan inisi edi. Necha mahal Balxning hukumati munda edi. Balxda yaxshi beklik qildi. Tiyra mag'z va behunarrok kishi erdi. Sulton Husayn mirzo avval Qunduz va Hisor ustig'a kelganda tiyra mag'zlig'idan tuttidilar. Balx hukumatidan mag'zul bo'ldi. Tarix to'qqiz yuz o'n oltida men Qunduz kelganda, mening qoshimg'a kelib edi, maxs va mabhut edi. Beklik qobiliyatidan dur va ichkilik salohiyatidan mahjur. G'olibo

Alisherbek vositasidin muncha rioyat topqandur", deya unga ta'rif berib o'tadi.

Balxga hokim bo'lgunicha Darvesh Ali Husayn Boyqaro saroyida kitobdorlik qilgan. 1482-yili unga amir unvoni berilib, Balxga hokim etib yuboriladi. Tabiiyki, Darvesh Alining saltanatda bunday darajaga yetishida, Bobur aytganidek, akasining obro'-e'tibori muhim o'rin tutgan. Biroq bu Darvesh Ali siyosatdan uzoq bo'lgan, degani emas. Balx u hokimlik payti Xurosondagi eng bexavotir, soliqlar kamaytirilgan, savdo rivoj topgan hududga aylangan.

Shuningdek, u ma'rifatli oilada voyaga yetgani, kitobdor bo'lib ishlagani, akalari – Bahlubek va Alisherbekning pand-nasihatlari bo'yicha ish ko'rgani uchun Balxning ma'naviy rivojiga e'tibor qaratdi.

Tarixchi Mirxondning "Ravzatus-safo" asarida yozilishiga ko'ra, "Darvesh Ali xoja Majiddiddin e'tibori va ixtiyori darajasi oshib, og'asi amir Alisherga davlat ishlariga aralashish imkoni

qolmagani va Majiddiddin unga muxolif bo'lib, isyon eshiklarini ochganligi haqida bir necha marta eshitganidan so'ng" 1490-yilda Boyqaroga qarshi isyon ko'taradi.

Shunda xalq va saltanat tinchligini o'ylagan Alisher Navoiy do'sti va ukasi o'rtasida vositachilik qiladi. Podshoh do'stiga "ukang yarasha, uni o'zimga eng yaqin kishilardan qilaman, hech qanday jazoga mustahiq qilmayman", deya va'da beradi. Biroq akasining iltimosiga ko'ra, Darvesh Ali tavba qilib kelganda, uni podshoh farmonini qalbakilashtirishda ayblab, zindonga tashlashadi. Mirxondning yozishicha, bunga sabab, Boyqaroning voyaga yetmagan o'g'li Ibrohim Husayn Mirzoni shahardan yiroqlashtirish chorasini ko'rib, Husayn Boyqaroning muhrini yasattirgan, shahzodani poytaxtga chaqiritirilgani haqida bir nishon bitib, unga o'sha muhrni ishlatgan edi.

Shahzodaning xos qo'shini bilan Hirotda ketganidan foydalanib, Darvish Ali Boyqaroga muxolif bo'lgan Hisor hokimi Sulton Mahmud bilan birlashib, isyon boshlaydi. Darvesh Alining shumligi oshkor bo'lgach, podshoh g'azablanib, jangga hozirlanadi. Ana shunday qaltis vaziyatda Navoiy isyonni to'xtatadi. Darvesh Ali Boyqaro oldiga Xoja Dehdor degan amaldor bilan kelib, "Og'amni badnom qilmoq bo'lgan Majiddiddinni vazirlikdan ketkazing, shunda xazinamni poyingizga to'kaman", deya cho'rtkesarlik qiladi.

Xullas, Darvesh Ali bor boyligini xazinaga

topshiradi. Boyqaro esa Majiddiddinni iste'foga chiqaradi. Boshqa hokimlar ham isyon ko'tarmasin, degan niyatda, podshoh Darvesh Alini zindonga tashlatadi. Biz oz o'tib, Majiddiddin Hajga jo'naydi, biroq 1494-yil avgustda, hali yo'lda ekanida Tabuk nomli mavzeda to'satdan vafot etadi. Afgva ko'ra zindondan chiqarilgan Darvesh Ali ham Hajga yo'l oladi. U ziyoratni ado etib, 1498-yilda Hirotda qaytib keladi. Xazinaga bor boyligini berib, podshoh ishonchini qozongan Darvish Ali yana saroyda ish boshlaydi.

Afsuski, 1501-yilda Navoiy vafot etgach, Darvesh Ali yana Balxga ketdi. 1503-yili Shayboniyo'xon Balxga hujum qilganida, Darvish Ali u bilan birlashadi. Hatto shahar amaldorlariga taslim bo'lib, Shayboniyo'xonga itoat etishga undaydi.

1506-yilda Boyqaro, 1510-yilda Shayboniyo'ning muhdish o'limidan so'ng Darvesh Ali Bobur xizmatiga o'tadi. Boburning eslashicha, 1511-yilda Darvish Ali Qunduzga, uning yoniga parishon va ko'rimiszi qiyofada keladi. 1512-yilda Samarqandni egallagan paytida ham Bobur Darvesh Alini o'z beklari orasida sanab o'tadi. Bobur "beklik qobiliyatidan yiroq va ichkilikka o'ch" deb ta'riflagan Darvesh Alining keyingi taqdiri noma'lum. Har holda Navoiyning ukasi Xuroson tarixida o'ziga xos o'rin tutgan shaxs bo'lgani aniq.

Umid BEKMUHAMMAD,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.

“...YOT EL ARO NE BOR MANGA?!”

Alisher Navoiy ijodida Vatan, Vatandan yiroqda bo'lish, ya'ni musofirlik va firoq mavzulari asosiy g'oyaviy yo'nalishlardan biri. Uning begona elda kechgan hayoti va ruhiy iztiroblari she'riyatida o'tkir va chuqur falsafiy-badiiy tarzda ifodalangan.

Masalan: fazilatlardan ham voz kechishga tayyorligini bayon etadi. Ushbu yurt sog'inichining naqadar kuchli

Ushbu g'azalning birinchi baytida Alisher Navoiy ayriqliq tushunchasini oddiy shaxsiy hijron emas, balki Vatandan judo bo'lish fojiasini darajasiga ko'targan. Birinchi misrada kelgan "firoq tuni" obrazli ifoda bo'lib, u ruhiy iztirob, tashvish, zulmat va ma'naviy qiyinchilikni bildiradi.

Shoirning ta'kidlashicha, bunday holatni faqat boshidan kechirgan, o'zi guvohi bo'lgan kishigina anglay oladi, firoq azobini tatib ko'rmagan odam "tiyra ro'zg'or"ning haqiqiy mohiyatini tushunolmaydi. Bu yerda "tiyra" (qorong'u) sifati nafaqat shaxsiy ruhiy holatni, balki vatansizlikdan kelib chiqadigan ijtimoiy-ma'naviy zulmatni ham anglatadi.

Ikkinchi baytida esa shoirning ruhiy iztirobi yanada kuchayadi. "Qoqchib adama boray" iborasi she'rda badiiy mubolag'a bo'lib, bor holatdan, ya'ni yot-begona elda, Vatandan uzoqda yashashdan to'yib-bezor bo'lganini ifodalaydi. Unda shoir hatto "aqlu fahmu donish'dan, ya'ni insonni inson qiluvchi oliy

ekanini ko'rsatadi.

"Vatan borinda bu yot el aro ne bor manga?!" misrasi esa she'rning g'oyaviy cho'qqisi bo'lib, unda shoirning mustahkam vatanparvarlik holati mujassamlashgan. Alisher Navoiy uchun Vatan mavjud ekan, begona yurtning hech qanday ne'mati, qulayligi, boyligu martabasi beqadrdir.

Mazkur baytlar hazrat Navoiy ijodida vatanparvarlik g'oyasining mazmunan chuqur falsafiy va hissiy asosga ega g'aligini namoyon etadi. U Vatan sog'inchini shaxsiy dard sifatida emas, balki insoniy va milliy darajadagi fojia o'laroq talqin qiladi. Natijada mazkur misralar o'quvchini yurt qadri bilish, g'urbat, firoq va musofirlik, vatansizlikning ma'naviy og'irligini anglashga chorlaydi.

Azizulloh AROL,
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti dotsenti,
Afg'oniston Fanlar akademiyasi faxriy a'zosi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Endilikda transportlarda (avtobus, metro, samolyot, poyezdlar) simsiz yoki mobil internet tarmog'i orqali "Mutolaa" platformasidan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi, qulaylik uchun QR kodlar o'rnatiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovoMUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov."Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 02.25 Topshirildi – 03.10 1 2 3 4 5 6